

XII.KORXONA VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat

xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2026- yilning 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 38 185 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 27 097 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 71,0 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (31,8 %), Chust (8,0 %), Pop, Chortoq (6,7 % dan), Uchqo'rg'on (6,5 %), Kosonsoy va Uychi (6,1 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2026- yilning 1- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	38 185	100,0	27 097	100,0
Namangansh.	12 135	31,8	8 447	31,2
Mingbuloq	1 992	5,2	1 498	5,5
Kosonsoy	2 341	6,1	1 556	5,8
Namangan t.	2 216	5,8	1 561	5,8
Norin	1 990	5,2	1 496	5,5
Pop	2 558	6,7	2 007	7,4
To'raqo'rg'on	2 241	5,9	1 693	6,2
Uychi	2 339	6,1	1 581	5,8
Uchqo'rg'on	2 472	6,5	1 643	6,1
Chortoq	2 555	6,7	1 739	6,4
Chust	3 036	8,0	2 274	8,4
Yangiqo'rg'on	2 310	6,0	1 602	5,9

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
(2026-yilning 1-yanvar holatiga)



- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan t. |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,4 %)), sanoat (17,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (7,8 %) hamda qurilish (6,0 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

(2026- yilning 1- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	33 509	100,0	22 650	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 970	8,9	1 813	8,0
sanoat	6 721	20,0	4 294	19,0
qurilish	2 260	6,7	1 392	6,1
savdo	13 127	39,2	9 083	40,1
tashish va saqlash	1 326	3,9	956	4,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 903	5,7	1 356	6,0
axborot va aloqa	530	1,6	367	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	824	2,5	699	3,1
boshqa turlari	3 848	11,5	2 690	11,9

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

26 819



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

1 249



Oilaviy korxonona

170



Ishlab chiqarish
kooperativi

4 974



Xususiy korxonona

21




Aksiyadorlik jamiyat

276




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Xususiy korxonona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni

(2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 249 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 293 taga yoki 81,0 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 918 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 82 taga yoki 109,8 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 111 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73 taga yoki 60,3 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni

(2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 26 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 923 taga yoki 90,2 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 559 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2847 taga yoki 118,1 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 916 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 329 taga yoki 109,2 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni
(2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 211 ta (jamiidagi ulushi 33,5 %), Chortoq 1 326 ta (7,1 %), Pop 1 309 ta (7,1 %), Chust 1 230 ta (6,6 %), Uychi 1 129 ta (6,1 %), Yangiqo'rg'on 1 115 ta (6,0 %), Uchqo'rg'on 1 086 ta (5,9 %), Kosonsoy 1 080 ta (5,8 %), Norin 1 068 ta (5,7 %), Namangan 1 034 ta (5,6 %), To'raqo'rg'on 1 019 ta (5,5 % ni) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 952 ta (5,1 %) tumani xissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	38 185	100,0	27 097	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 995	7,8	1 838	6,8
sanoat	6 727	17,6	4 300	15,9
qurilish	2 276	6,0	1 407	5,2
savdo	13 132	34,4	9 085	33,5
tashish va saqlash	1 327	3,5	957	3,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 905	5,0	1 358	5,0
axborot va aloqa	563	1,5	399	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 092	2,8	962	3,5
boshqa turlari	8 168	21,4	6 791	25,1


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2026- yilning 1-yanvar holatiga)



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 71,0 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 29,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 14,8 foizga kamaygan.


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

01.01.2025- yil



■ Faoliyatsizlar


01.01.2026- yil



■ Faoliyat ko'rsatayotganlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga 22 650 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 969 ta, oilaviy korxonalar – 918 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18 559 tani va 204 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 4 638 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,1 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 378 ta), Uchqo'rg'on (372 ta), Mingbuloq (366 ta), Chortoq (328 ta), Chust (308 ta), Kosonsoy (304 ta), Norin (298 ta), Pop (294 ta) va Yangiqo'rg'on (280 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, Namangan (199 ta), To'raqo'rg'on (254 ta) va Uychi (257 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda**
(2026-yilning 1-yanvar holatiga)




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2026-yilning 1-yanvar holatiga)




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2026-yilning 1-yanvar holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot, birlikda




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (2025-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 37,0 %, sanoatda 13,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,8 %, qurilishda 4,0 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025-yilning yanvar-dekabr oylarida)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

29,7 %



Sanoat

24,3 %



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligi

15,3 %



Savdo

24,3 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar

0,9 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar

2,7 %



Boshqa turlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 22 471 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024 yilning mos davriga nisbatan 115,0 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 7 128 tasi (jami sub'ektlarning 31,7 %) Namangan shahriga, 1 911 tasi (8,5 %) Chust, 1 624 tasi (7,2 %) Pop, 1 447 tasi (6,4 %) Chortoq, 1 407 tasi (6,3 %) To'raqo'rg'on, 1 346 tasi (6,0 %) Uchqo'rg'on, 1 310 tasi (5,8 %) Namangan tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 225 tasi (5,5 %) Mingbuloq, 1 228 tasi (5,5 %) Norin, 1 285 tasi (5,7 %) Yangiqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni

	2025- yilning 1- yanvar holatiga		2026- yilning 1- yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	19 547	100,0	22 471	100,0
Namangan sh.	6 329	32,4	7 128	31,7
Mingbuloq	984	5,0	1 225	5,5
Kosonsoy	1 117	5,7	1 264	5,6
Namangan t.	1 159	5,9	1 310	5,8
Norin	988	5,1	1 228	5,5
Pop	1 478	7,6	1 624	7,2
To'raqo'rg'on	1 262	6,5	1 407	6,3
Uychi	1 154	5,9	1 296	5,8
Uchqo'rg'on	1 066	5,4	1 346	6,0
Chortoq	1 252	6,4	1 447	6,4
Chust	1 697	8,7	1 911	8,5
Yangiqo'rg'on	1 061	5,4	1 285	5,7

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 22 471 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 9 057 tasi (40,3 %) - savdoda, 4 237 tasi (18,9 %) - sanoatda, 1 804 tasi (8,0 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 384 tasi (6,2 %) - qurilishda, 1 352 tasi (6,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 952 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 694 tasi (3,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 367 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 624 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)



2025- yil yanvar-dekabr oylarida jami 4 278 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 308 ta), Uchqo'rg'on (350 ta), Mingbuloq (343 ta), Chortoq (296 ta), Kosonsoy (278 ta), Norin (274 ta), Chust (273 ta), Pop (258 ta) va Yangiqo'rg'on (249 ta) tumanlariga eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (182 ta), Uychi (233 ta) va To'raqo'rg'on (234 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**2025-yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (1 718 ta), sanoatda (622 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (594 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (294 ta) hamda qurilishda (183 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, tashish va saqlashda (108 ta), axborot va aloqada (109 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (117 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2026-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 32,5 % ni (10 824 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 427 taga kamaygan.


Hisobot davrida 8 793 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 1320 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 15,0 %) ixtiyoriy tugatilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2025- yil yanvar-dekabr)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2026- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 262 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45 taga yoki 120,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 100 tasi qo'shma korxonalar, 162 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda
(2026- yilning 1 –yanvar holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 118 ta (45,0 %), Pop 19 ta (7,2 %), Chust, Yangiqo'rg'on 18 tadan (6,9 %), Uychi 16 ta (6,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Chortoq 5 ta (1,9 %), Mingbuloq 7 ta (2,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	262	100,0
Namangan sh.	118	45,0
Mingbuloq	7	2,7
Kosonsoy	14	5,3
Namangan t.	12	4,6
Norin	8	3,1
Pop	19	7,2
To'raqo'rg'on	17	6,5
Uychi	16	6,1
Uchqo'rg'on	10	3,8
Chortoq	5	1,9
Chust	18	6,9
Yangiqo'rg'on	18	6,9


Faoliyat ko'rsatayotgan 262 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 101 tasi (38,6 %) sanoat, 64 ta (24,4 %) savdo, 21 ta (8,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 20 tasi (7,6 %) qurilish, 9 tasi (3,4 %) tashish va saqlashda, 7 tasi (2,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 6 tasi (2,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 27 tasi (10,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi (2026- yilning 1- yanvar holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	262	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	8,0
sanoat	101	38,6
qurilish	20	7,6
savdo	64	24,4
tashish va saqlash	9	3,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	2,3
axborot va aloqa	7	2,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	2,7
boshqa turlari	27	10,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 67 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5 taga yoki 3,1 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 30 ta, Turkiya – 10 ta, Rossiya Federatsiyasi – 7 ta, Janubiy Koreya – 4 ta, Eron, SHvetsiya Qirolligi, va Niderlandiya qirolligi – 2 tadan, Germaniya, Hindiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Buyuk Lyuksemburg Gertsogligi, Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Birlashgan Arab Amirliqi, Ukraina, Amerika qo'shma shtatlari – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 67 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (37 ta), To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on (5 tadan), Namangan, Chust (4 tadan), Pop, Mingbuloq (3 tadan), Kosonsoy, Uychi va Yangiqo'rg'on (2 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Norin, Chortoq tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
hududlar kesimidagi soni va ulushi**
(2025- yil yanvar- dekabr)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	67	100,0
Namangan sh.	37	55,2
Mingbuloq	3	4,5
Kosonsoy	2	3,0
Namangan t.	4	6,0
Norin	-	-
Pop	3	4,5
To‘raqo‘rg‘on	5	7,4
Uychi	2	3,0
Uchqo‘rg‘on	5	7,4
Chortoq	-	-
Chust	4	6,0
Yangiqo‘rg‘on	2	3,0

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdoda 24 ta, sanoatda 20 ta, qurilishda 8 ta, yashash va ovqatlanish 3 ta, axborot va aloqa 2 ta va boshqa sohalarida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2025- yil yanvar- dekabr)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2026- yilning 1- yanvar holatiga 1 249 tani tashkil etib, ulardan 918 tasi yoki 73,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 19,3 % ga ko'payganligini ta'kidlash mumkin.